

## UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI

**Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich**

Navoiy viloyati,  
O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi  
boshliq o‘rinbosari,  
Toshkent davlat agrar universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
**ORCID: 0009-0004-0775-8751**

### **Annotatsiya**

Maqolada uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar tizimli tahlil qilingan. Mualliflar va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari asosida klasterlashgan iqtisodiy modelning afzalliklari, resurslardan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi, eksport imkoniyatlari hamda soliq imtiyozlarining ta’siri yoritilgan. Shuningdek, uzumchilik tarmog‘ida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘rni tahlil etilgan. Ilmiy tahlil natijalari sohada samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** uzumchilik, iqtisodiy samaradorlik, klaster tizimi, resurslardan foydalanish, soliq imtiyozlari, eksport salohiyati, davlat-xususiy hamkorlik, moliyaviy barqarorlik.

### **Аннотация**

В статье проведён системный анализ основных факторов, определяющих экономическую эффективность в отрасли виноградарства. На основе научных исследований отечественных авторов раскрыты преимущества кластерной экономической модели, эффективность использования ресурсов, производительность труда, экспортные возможности и влияние налоговых льгот. Кроме того, рассмотрены механизмы партнёрства между государственным и частным секторами, а также их роль в обеспечении финансовой устойчивости виноградарских кластеров. Полученные результаты способствуют определению приоритетных направлений повышения эффективности отрасли.

**Ключевые слова:** виноградарство, экономическая эффективность, кластерная система, использование ресурсов, налоговые льготы, экспортный потенциал, государственно-частное партнёрство, финансовая устойчивость.

### **Abstract**

The article presents a systematic analysis of the key factors determining economic efficiency in the viticulture sector. Based on the scientific works of various researchers, the study highlights the advantages of a clustered economic model, resource utilization efficiency, labor productivity, export opportunities, and the impact of tax incentives. The paper also examines the partnership mechanisms between the public and private sectors and their role in ensuring financial stability within viticulture clusters. The research findings contribute to identifying priority directions for improving the overall efficiency of the sector.

**Keywords:** viticulture, economic efficiency, cluster system, resource utilization, tax incentives, export potential, public-private partnership, financial stability.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida agrar sohani, ayniqsa uning strategik yoʻnalishlaridan biri boʻlgan ixtisoslashgan qishloq xoʻjaligi tarmoqlarini samarali rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida qishloq xoʻjaligini barqaror rivojlantirish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish, aholi bandligini taʼminlash va eksport salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri — uzumchilik boʻlib, u nafaqat mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoitiga mosligi, balki koʻp asrlik anʼanalar, madaniy meros va bozor talablari nuqtai nazaridan ham katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda uzum va uzum mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki jahon bozorida ham yuqori qiymatga ega agrar eksport tovarlari qatorida eʼtirof etilmoqda.

Biroq uzumchilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklarning iqtisodiy faoliyati koʻplab ichki va tashqi omillar taʼsirida shakllanadi. Ularning samaradorligi, asosan, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, klaster tizimini rivojlantirish hamda bozor infratuzilmasiga chuqur integratsiyalashuv darajasiga bogʻliqdir. Shu bois, fermer va klaster asosidagi xoʻjaliklarning iqtisodiy koʻrsatkichlarini tahlil qilish, ularning daromadliligi va raqobatbardoshlik darajasini baholash orqali uzumchilik sohasining istiqbollari belgilash muhim hisoblanadi.

Shunday ekan, uzumchilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklar faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish hamda sohada samaradorlikni oshirish boʻyicha ilmiy-nazariy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Oʻzbekistonda uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yoʻnalishida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, klaster tizimining toʻgʻri va samarali tashkil etilishiga bevosita bogʻliqdir. Chunki klasterlashgan boshqaruv modeli agrar ishlab chiqarish zanjirining barcha boʻgʻinlarini — xom ashyo yetishtirishdan tortib, qayta ishlash, saqlash, qoʻshimcha qiymat yaratish va eksportga chiqarishgacha boʻlgan jarayonlarni — yaxlit tizimda birlashtirish imkonini beradi.

Mavzuga doir ilmiy izlanishlarda, jumladan, N. Boltayev tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlarda uzumchilik sohasida qoʻshimcha qiymat zanjirini shakllantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy mezonlari atroflicha yoritilgan. Muallifning fikricha, klaster tizimi orqali infratuzilmaviy yechimlarni rivojlantirish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish va eksport imkoniyatlarini mustahkam bogʻlash natijasida sohaning umumiy rentabelligi hamda raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, klasterlashuv jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan, balki hududiy rivojlanish, aholi bandligini ta'minlash, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [1].

N. Boltayevning boshqa ilmiy tadqiqotlarida ham klasterlashgan iqtisodiy model chuqur nazariy asosda tahlil qilinib, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Muallif o'z izlanishlarida xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan foydalanish koeffitsiyenti va daromadlilik darajasi kabi mezonlar orqali iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning ilmiy-amaliy usullarini taklif etgan.

Ushbu yondashuvlar, avvalo, qishloq xo'jaligining hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mahalliy sharoitlarda samarali qo'llanish imkoniyatiga egaligi bilan ahamiyatlidir. Shu tariqa, Boltayev ishlab chiqqan model nafaqat nazariy, balki amaliy qo'llanish nuqtai nazaridan ham qimmatli hisoblanadi. U orqali har bir hududning agrar salohiyati va iqtisodiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, klaster tizimidagi resurs aylanmasi hamda qo'shimcha qiymat zanjirini aniq baholash imkoniyati yaratiladi. Natijada, bunday ilmiy yondashuvlar hududiy darajadagi agrar islohotlarni rejalashtirishda, investitsiya siyosatini shakllantirishda va uzumchilik sohasida innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [2].

B. I. Isroilov va I. S. Ochilov tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolada klaster tizimini shakllantirish va samarali faoliyat yuritish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy muammolar hamda ularni bartaraf etishning iqtisodiy mexanizmlari atroflicha yoritilgan. Mualliflar o'z tadqiqotlarida klaster faoliyatining huquqiy bazasini mustahkamlash, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ishtirokchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniq huquqiy me'yorlar asosida tartibga solish zarurligini ta'kidlaydilar.

Maqolada, shuningdek, xalqaro tajribalar bilan taqqoslama tahlil olib borilib, O'zbekistondagi institutsional muhit va amaliy shart-sharoitlar o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatda klaster tizimi barqaror rivojlanishi uchun qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Shuningdek, mualliflar klaster ishtirokchilari — ya'ni fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika va moliya institutlari o'rtasida samarali kooperatsiya mexanizmlarini joriy etish bo'yicha aniq tavsiyalar ilgari surganlar. Bu tavsiyalar amalga oshirilganda, agrar klasterlar faoliyatida boshqaruv samaradorligi oshishi, resurslar taqsimoti optimallashtirishi va iqtisodiy foyda barcha ishtirokchilar o'rtasida muvozanatli taqsimlanishi ta'minlanadi [3].

X. Urdushev va hammualliflar tomonidan yozilgan ilmiy maqolada qishloq xo'jaligida klaster tizimining iqtisodiy salohiyatga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Mualliflar tadqiqotda klaster modelini joriy etish natijasida agrar sohada yuzaga

keladigan iqtisodiy o'zgarishlarni chuqur o'rgangan hamda uning qishloq hududlaridagi rivojlanish jarayonlariga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlashga harakat qilganlar.

Xususan, maqolada mehnat unumdorligini oshirish, hududiy salohiyatdan samarali foydalanish, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va ishlab chiqarish zanjirida qo'shimcha qiymat yaratish kabi omillar orqali klaster tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholashga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar fikricha, klaster tizimi nafaqat ishlab chiqarish jarayonini integratsiyalaydi, balki innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bozor talablariga tez moslashish va mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali umumiy iqtisodiy o'sishga turtki beradi.

Shuningdek, tadqiqotda klaster modelining ijtimoiy ahamiyati ham qayd etilgan — ya'ni u qishloq aholisi bandligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va hududiy daromad manbalarini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu jihatdan mualliflar tomonidan keltirilgan xulosalar klaster tizimini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik bilan birga ijtimoiy foyda ham yaratishini amalda isbotlab bergan [4].

T. N. Iminov va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda klasterlashgan xo'jaliklarning eksport salohiyati, bozor integratsiyasi hamda institutsional qo'llab-quvvatlash choralari atroflicha yoritilgan. Mualliflar o'z ishlarida agrar klasterlar, jumladan, uzumchilik sohasida tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni tahlil qilganlar.

Tadqiqotda ayni paytdagi xususiy sektor va davlat o'rtasidagi sheriklik munosabatlari tizimining ahamiyatiga alohida urg'u berilgan. Mualliflar fikricha, ana shu hamkorlik mexanizmi orqali eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, logistika va marketing infratuzilmasini takomillashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, tadqiqotda institutsional qo'llab-quvvatlashning turli shakllari — soliq imtiyozlari, eksport subsidiyalari, kredit liniyalari va agrar innovatsiya markazlari faoliyati kabi chora-tadbirlar klaster tizimi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Mualliflar xulosalariga ko'ra, uzumchilik tarmog'ida davlat va xususiy sektorning o'zaro muvofiqlashgan faoliyati natijasida eksport hajmi oshadi, ichki bozor barqarorligi ta'minlanadi hamda klaster xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi [5].

N. Burhonov va M. Xudoyarova tomonidan tayyorlangan tadqiqotda O'zbekistondagi agrar klasterlar faoliyatidagi soliq siyosati, berilgan imtiyozlar va ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Mualliflar izlanishlarida davlatning soliq-byudjet siyosati orqali agrar sohani qo'llab-quvvatlash usullari hamda ularning xo'jaliklar moliyaviy barqarorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqotda, xususan, soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlantirish choralari orqali klaster ishtirokchilarining investitsiyaviy faolligi oshishi, resurslar aylanmasi tezlashishi va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayishi qayd etilgan. Mualliflar fikricha, samarali soliq siyosati nafaqat korxonalarining moliyaviy yukini

kamaytiradi, balki ularni texnologik yangilanish va eksport salohiyatini rivojlantirishga ragʻbatlantiradi.

Shuningdek, tadqiqotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ragʻbatlantirish mexanizmlarining uzoq muddatli taʼsiri ham tahlil qilingan. Yaʼni, soliq imtiyozlarini tizimli ravishda joriy etish va ularni natijaga yoʻnaltirilgan moliyaviy siyosat bilan uygʻunlashtirish orqali klaster xoʻjaliklarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mualliflar xulosalariga koʻra, moliyaviy barqarorlik va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash siyosatining toʻgʻri uygʻunligi — agrar klaster tizimining uzoq muddatli samaradorligini taʼminlaydigan eng muhim omillardan biridir [6].

Uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda xorijlik olimlarning ham oʻrni katta. Masalan, Michael Porterning klasterlar nazariyasi muhim manba hisoblanadi. Uning *“Competitive Advantage of Nations”* asarida tarmoqlararo kooperatsiya, hududiy yakdillik va innovatsiya drayverlarini klaster asosida birlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Bu nazariya uzumchilikda klasterlashgan boshqaruv modelini joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [7].

Avstriyalik va amerikalik iqtisodchi, siyosatshunos, sotsiolog hamda iqtisodiy fikrlar tarixi boʻyicha taniqli olim Joseph Schumpeterning *“Theory of Economic Development”* asarida innovatsiya, texnologik yangilanish va tadbirkorlik iqtisodiy oʻsishning asosiy drayverlari sifatida taʼriflangan. Uning taʼkidlashicha, har qanday iqtisodiy samaradorlik innovatsion yechimlarsiz mukammal rivojlanishi mumkin emas. Bu gʻoya uzumchilikda intensiv agrotexnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslab beradi [8].

Oliver Williamsonning *“The Economic Institutions of Capitalism”* nomli asarida transaksion xarajatlar nazariyasi yoritilib, bozor munosabatlari samaradorligining institutsional muhitga bogʻliqligi asoslab berilgan. Ushbu nazariya asosida oʻzbek uzumchiligida infratuzilmaviy cheklovlar, logistika muammolari va institutsional yetishmovchiliklar iqtisodiy samaradorlikka toʻsiq boʻlayotgani haqida xulosa chiqarish mumkin [9].

FAO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning qishloq xoʻjaligi sohasidagi tahlillarida qoʻshimcha qiymat zanjiri, qayta ishlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va marketing yoʻnalishlari uzoq muddatli samaradorlikni taʼminlashning asosiy shartlari sifatida qayd etilgan. Jumladan, FAOning *“Value Chain Development for Decent Work”* hisobotida qayta ishlash orqali mahsulotning bozordagi qiymati kamida 1,5–2 barobarga oshirilishi mumkinligi taʼkidlangan [10].

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti boʻyicha amerikalik iqtisodchi Michael Kremerning *“O-Ring Theory”* nazariyasida yuqori samaradorlikka erishish uchun barcha ishlab chiqarish bosqichlarida sifatli va uygʻun faoliyat talab etilishi qayd etilgan. Bu nazariya uzumchilik xoʻjaliklarida infratuzilma, taʼlim, texnologiya va bozor mexanizmlari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni asoslaydi [11].

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishish muammosi nafaqat milliy, balki xalqaro

iqtisodiy tadqiqotlar doirasida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro darajadagi taniqli iqtisodchilar — J. Schumpeter, M. Porter, O. Williamson va M. Kremerning nazariy qarashlari, FAO kabi tashkilotlarning qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalari uzumchilikda klasterlashgan boshqaruv, innovatsiya, kooperatsiya va infratuzilmani rivojlantirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, N. Boltayev, B. Isroilov, X. Urdushev, T. Iminov va N. Burhonov kabi mahalliy tadqiqotchilarning amaliy yo‘naltirilgan ishlari mamlakatimizda uzumchilik klasterlarini tashkil etish, huquqiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirish masalalarida aniq yechimlar taklif etmoqda.

Xorijiy nazariyalar va milliy amaliyotning uyg‘un tahlili mazkur sohada kompleks va innovatsion yondashuvni shakllantirish, jahon tajribasini mahalliy sharoitlarga integratsiya qilish hamda uzumchilik xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda respublikadagi uzumchilik sohasining umumiy holati, iqtisodiy samaradorlikka ta‘sir etuvchi omillar va tarmoq infratuzilmasi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma‘lumotlar, sohaviy hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalardan foydalanildi. Shuningdek, kuzatish, tavsiflash, solishtirish va iqtisodiy-statistik tahlil usullari asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarilib, sohani rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O‘tkazilgan tahlillar natijalari shundan dalolat beradiki, uzumchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligi ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq parametrlar ta‘sirida shakllanadi. Bu tizimda tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy va institutsional omillar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, har bir omilning o‘zgarishi boshqasiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Avvalo, hududlar bo‘yicha mahsulot yetishtirishdagi farqlar agrar tarmoqdagi hududiy ixtisoslashuv darajasi va uning iqtisodiy natijalarga ta‘sirini yaqqol ko‘rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda respublika bo‘yicha 1,76 million tonna uzum yetishtirilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1,7 million tonna atrofida bo‘lib, 1,3 foizga pasaygan. Ushbu pasayish, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, agrotexnik xizmatlarning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi va ishlab chiqarish infratuzilmasining zaifligi bilan bog‘liq. Shu jihatdan, mazkur omillar uzumchilik xo‘jaliklari samaradorligini belgilovchi tashqi va ichki tavakkalchiliklar tizimidagi zaif bo‘g‘inlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiy samaradorlik mezonlari sifatida qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar — rentabellik, mahsulot tannarxi va gektarga to‘g‘ri keladigan hosildorlik — ko‘p hollarda sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan klaster xo‘jaliklarida rentabellik darajasi 25–30% atrofida bo‘lsa, an‘anaviy usulda ishlovchi dehqon xo‘jaliklarida bu ko‘rsatkich 10–15%dan oshmaydi. Mos ravishda, yuqori texnologiyali xo‘jaliklarda

har gektardan 20–25 tonna mahsulot olinayotgan bo'lsa, ekstensiv usuldagi xo'jaliklarda bu miqdor 8–12 tonnani tashkil etadi. Bu holat texnologik divergeniya — ya'ni rivojlanishning ikki xil trayektoriyasi mavjudligini anglatadi.

Uchinchidan, qayta ishlash infratuzilmasi va logistika tarmoqlarining rivojlanganligi xo'jaliklarning umumiy daromad darajasiga va mahsulotga qo'shilayotgan qiymat koeffitsiyentiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, qayta ishlash infratuzilmasiga ega klasterlarda mahsulotni qayta ishlash darajasi 35–40%ga yetgan bo'lib, bu mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirmoqda. Ayniqsa, bunday klasterlarda eksportbop tayyor mahsulotlar — vino, kishmish, sharbat va sirka — ulushi keskin ortgan.

To'rtinchidan, eksport salohiyatining tahlili uzumchilikning jahon bozorida mavqeyini baholash imkonini beradi. Masalan, 2022-yilda O'zbekiston uzum eksporti bo'yicha dunyoda 9-o'rinni egallagan bo'lsa, 2023-yilda 20-o'ringa pasaygan. Bu pasayishning asosiy sabablari sifatida mahsulot assortimentining cheklanganligi, xalqaro sertifikatlash standartlariga mos kelmaslik, logistika xarajatlarining yuqoriligi va institutsional to'siqlar ko'rsatilmoqda. Shu sababli, global talablarga javob bera oladigan klasterlashgan eksport strategiyasini shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan.

Beshinchidan, hududiy salohiyat tahlili Samarqand (666,1 ming tonna), Farg'ona (179,1 ming tonna), Buxoro (232,4 ming tonna) va Namangan (160,8 ming tonna) viloyatlarida uzumchilikning an'anaviy va istiqbolli yo'nalish sifatida rivojlanganini ko'rsatdi. Mazkur hududlar agrar ishlab chiqarish infratuzilmasi, aholi bandligi va qo'shimcha qiymat zanjiri nuqtai nazaridan klaster markazlari sifatida qaralishi mumkin.

Natijada, tahlillar ko'rsatmoqdaki, uzumchilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo'li — resurslardan maqsadli foydalanish, texnologik modernizatsiya, mahsulot turlarini bozor talablariga mos diversifikatsiya qilish va klaster asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish hamda eksport tizimlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari iqtisodiy samaradorlikning ko'p qirrali (multidimensional), tarmoqlararo (inter-sectoral) va institutsional (institutional) xususiyatga egaligini tasdiqlaydi. Shu bois, uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha siyosat ishlab chiqishda faqat ishlab chiqarish hajmlariga emas, balki agrar sektorning mezo va makro darajadagi transformatsiya modellariga asoslangan ilmiy yondashuv zarur.

Birinchi navbatda, uzumchilik xo'jaliklaridagi rentabellik darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri — intensiv va ekstensiv ishlab chiqarish usullari o'rtasidagi samaradorlik tafovutidir. Jahon amaliyoti (Porter, 1998) shuni ko'rsatadiki, yuqori daromadli agrar tarmoqlar aynan tez yetiluvchi, yuqori hosilli va bozorbop navlarga tayanadi. O'zbekiston sharoitida esa bu yondashuv hali to'liq joriy etilmagan. Intensiv texnologiyalar qo'llanilgan xo'jaliklarda 1 gektardan 20–25 tonna uzum yetishtirilishi mumkin bo'lsa, an'anaviy usulda bu ko'rsatkich 8–12 tonnani tashkil etadi. Bu esa valyuta tushumlari, mehnat unumdorligi va umumiy rentabellik darajasida katta farq keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qayta ishlash va qo‘shimcha qiymat yaratish zanjiri uzumchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy salohiyatini to‘liq namoyon etadi. FAO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar ta’kidlaganidek, agrar sohada qo‘shimcha qiymat asosan qayta ishlash bosqichida shakllanadi va bu umumiy daromadni kamida 1,5–2 barobarga oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, infratuzilmaviy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish — xususan, sovitkich omborlar, logistika markazlari va sertifikatlash xizmatlarini kengaytirish — eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda. Ushbu jarayon Williamson (1985) tomonidan ilgari surilgan “transaksiyon xarajatlar nazariyasi”ga muvofiq ravishda, bozor samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida institutsional muhit va infratuzilmaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu yo‘nalishda kompleks infratuzilma loyihalarini rivojlantirish, tarmoq integratsiyasini kuchaytirish va logistika zanjirini takomillashtirish istiqbolli natijalar beradi.

To‘rtinchidan, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va ilmiy salohiyatni ishlab chiqarish amaliyotiga samarali integratsiya etish kelgusida sohada innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish imkonini beradi. Schumpeterning (1934) “innovatsion o‘zgarishlar nazariyasi”da ta’kidlanganidek, ilmiy-texnologik bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish iqtisodiy o‘shish va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, zamonaviy agrotexnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan mutaxassislar tayyorlash tizimini kengaytirish istiqbolli yo‘nalish sifatida baholanadi.

Beshinchidan, hududiy salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotgani natijasida resurslar samarasiz sarflanmoqda. Mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun hududiy differentsiatsiya va klasterlashgan ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Nihoyat, uzumchilik tarmog‘ining jahon bozoridagi barqaror mavqeyini ta’minlash uchun global standartlar, xalqaro sertifikatlash, marketing va brendlashtirish strategiyalarini joriy etish zarur. Sanoatbop navlarni eksport talablariga mos holda yetishtirish va “geografik belgilar” asosida brending tizimini shakllantirish — iqtisodiy samaradorlikni oshirishning hal qiluvchi yo‘nalishidir.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda uzumchilik sohasi milliy agrar iqtisodiyotning muhim strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy samaradorligi ko‘p omilli va kompleks jarayon hisoblanadi. Mavjud tahlillardan ayon bo‘ldiki, sohadagi faoliyat natijadorligi tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va institutsional omillar o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi.

Birinchi navbatda, hududiy ixtisoslashuv va resurslardan foydalanish samaradorligi sohaning barqaror rivojlanishiga asos bo‘ladi. Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida uzumchilikning yuqori salohiyati mavjud bo‘lib, ushbu hududlarda agrar infratuzilma va bozor integratsiyasini yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, texnologik yangilanish va innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish darajasi xo‘jaliklarning iqtisodiy natijalarini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Zamonaviy klaster tizimi asosida faoliyat yurituvchi xo‘jaliklar an’anaviy

dehqonchilik usullariga nisbatan yuqori rentabellik va hosildorlik ko'rsatkichlariga erishmoqda.

Uchinchidan, qayta ishlash va logistika infratuzilmasining yanada rivojlantirilishi sohada qo'shimcha qiymat zanjirini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu ma'noda, klaster tizimida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hamda eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, eksport salohiyatining mavjud imkoniyatlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uzumchilik tarmog'i jahon bozorida raqobatbardosh o'rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlarga ega. Kelgusida xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini kuchaytirish hamda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali tarmoqning global integratsiyasi va eksport hajmini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa sohani institutsional va huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash uchun asos yaratadi.

Beshinchidan, ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar — M. Porterning klaster nazariyasi, J. Schumpeterning innovatsiya konsepsiyasi, O. Williamsonning institutsional modellari va boshqalar — uzumchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, N. Boltayev, B. Isroilov, X. Urdushev, T. Iminov va N. Burhonov kabi mahalliy olimlar ishlanmalari orqali sohadagi klasterlashuv, soliq imtiyozlari, institutsional islohotlar va resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishlarida amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, uzumchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish zarur:

- innovatsion agrotexnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy etish;
- qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish;
- klaster tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash;
- davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish;
- soliq va moliyaviy rag'batlantirish siyosatini takomillashtirish.

Bunday tizimli yondashuv natijasida uzumchilik sohasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki hududiy bandlik, aholi daromadlari o'sishi va milliy eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladigan barqaror tarmoq sifatida shakllanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boltayev N. Cluster-Oriented Strategies for the Integration and Diversification of Uzbekistan's Viticulture Sector // EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review. 2025. Vol. 13, № 5. URL:

<https://eprajournals.com/IJCI/article/16481>

2. Boltayev N. Strategic Integration and Diversification in the Viticulture Sector: A Cluster-Based Approach to Sustainable Development // EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research. 2025. Vol. 13, № 5. URL:

<https://eprajournals.com/IJIR/article/16006>

3. Isroilov B. I., Ochilov I. S. Improvement Of Organizational And Economic Mechanisms Of Organization Of Vine Clusters // The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021. Vol. 3, № 08. URL: <https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/1168>
4. Urdushev X., Eshankulov S., Mavlyanov M. The Role of Clusters in Increasing the Economic Potential of Agricultural Enterprises // Science and Innovative Development. 2021. Vol. 4, № 3. URL: <https://ilm-fan-journal.csti.uz/index.php/journal/article/view/88>
5. Iminov T. N., Kurganov Kh. R., Abdulatifova A. The Role and Importance of Fruit and Vegetable Clusters in Economic Development // EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research. 2021. Vol. 9, № 4. URL: <https://eprajournals.com/IJIR/article/4679>
6. Burkhanov N., Khudayarova M. Agricultural Clusters in the Republic of Uzbekistan and Their Impact on Tax Policy // International Journal of Artificial Intelligence. 2025. Vol. 5, № 06. URL: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/5048>
7. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 875 p. URL: [https://www.hbs.edu/faculty/Publication%20Files/competitive\\_advantage\\_of\\_nations\\_eea82d71-bd16-42f5-bcfc-0d12fa86b861.pdf](https://www.hbs.edu/faculty/Publication%20Files/competitive_advantage_of_nations_eea82d71-bd16-42f5-bcfc-0d12fa86b861.pdf)
8. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – New York: Harvard University Press, 1934. – 255 p. URL: <https://archive.org/details/theoryofeconomic00schu>
9. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985. – 450 p. URL: <https://www.worldcat.org/title/economic-institutions-of-capitalism/oclc/11784950>
10. FAO. Value Chain Development for Decent Work: A Guide for Development Practitioners, Government and Private Sector Initiatives. – Rome: FAO, 2015. – 125 p. URL: <https://www.fao.org/3/i5461e/i5461e.pdf>
11. Kremer M. The O-Ring Theory of Economic Development // Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108, № 3. – P. 551–575. URL: <https://academic.oup.com/qje/article-abstract/108/3/551/1882552>
12. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo‘jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
13. Fayziyev O.R., Saidov M.H., Abduraxmonova N.I. / Agrar sektorni rivojlantirishda resurslar salohiyatidan foydalanishning hozirgi holati tahlili / Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (December 2022). – Tashkent, 2022. – Volume 2. – Issue 13. – P. 275-279 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961)

14. Tursunov T.J. Uzunchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2025. — № 7. – B. 197-201.

15. Tursunov T.J. O‘zbekistonda uzunchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta’siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2025. — № 7. – B. 502-507.

16. Tursunov T.J. O‘zbekistonda uzunzorlar maydonining o‘shishi va sohadagi transformatsiya jarayonlari. “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2024. 560-563 betlar.

17. Tursunov T.J. Uzunchilikda samaradorlikni baholashning ilmiy-nazariy asoslari va xalqaro tajribalar tahlili. «Agrobiznes, fan va texnologiyalar». – Toshkent, 2025. — № 7/[7]-son. – B. 448-458.

18. Tursunov T.J. O‘zbekiston uzunchilik tarmog‘i: iqtisodiy ahamiyati, hududiy dinamikasi va rivojlanish istiqbollari. In Solution of social problems in management and economy (Vol. 4, Number 11, pp. 50–56). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16867476>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**